



“AVO secret bag” aksiyasini o‘tkazish qoidalari

1. Atamalar va ta'riflar

Aksiya –O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq Bank tomonidan o‘tkaziladigan rag‘batlantiruvchi “AVO secret bag” aksiyasi.

Bank – “AVO bank” aksiyadorlik jamiyati (“AVO bank” AJ), STIR 207257279, ro‘yxat raqami 16/1, manzil: O‘zbekiston Respublikasi, Toshkent sh., Mirobod tumani, Afrosiyob ko‘chasi, 14/2 uy, telefon +998 78 888-78-78, elektron pochta manzili info@avo.uz, Aksiya tashkilotchisi hisoblanadi.

G‘olib –Aksiya doirasida o‘tkaziladigan yutuqli o‘yin natijalariga ko‘ra Sovrinni olish huquqini olgan Aksiya Ishtirokchisi.

Qoidalar –Aksiyani o‘tkazish tartibini belgilovchi ushbu hujjat.

Sovrin –Qoidalarga muvofiq G‘olibga topshiriladigan qimmatbaho sovrin.

1 yutuqli o‘yin –Bank Instagram obunachilari o‘rtasida Sovrinlar o‘ynalishi.

2 yutuqli o‘yin –Bank Telegram-kanali obunachilari o‘rtasida Sovrinlar o‘ynalishi.

Bank Sayti – Bankning Internet tarmog‘idagi www.avo.uz manzilida joylashtirilgan rasmiy veb-sayti.

Aksiya Ishtirokchisi –Qoidalarning 3.2 va/yoki 3.3 bandlarida belgilangan shartlarni bajargan jismoniy shaxs.

Bank Instagrami –<https://www.instagram.com/avouzbank/> manzilida joylashgan Bankning Instagram ijtimoiy tarmog‘idagi sahifasi.

Bank Telegram-kanali –Bankning Telegram messenjeridagi @avouzbank kanali.

2. Umumiy qoidalar

2.1. Qoidalar ijtimoiy tarmoqlarda Bank sahifalariga yangi obunachilarni jalb etish, Bankning yangi mijozlarini jalb etish va Bank mahsulotlaridan foydalanishni rag‘batlantirishga yo‘naltirilgan Aksiyani o‘tkazish tartibini belgilaydi.

2.2. Aksiyani o‘tkazish muddati:

2.2.1. Aksiya boshlanish sanasi va vaqti: 2024 yil 10 dekabr, Toshkent vaqti bilan soat 10:00.

2.2.2. Aksiya tugash sanasi va vaqti: 2025 yil 10 yanvar, Toshkent vaqti bilan soat 20:00.

2.3. Aksiyani o‘tkazish muddati Bank ixtiyoriga ko‘ra o‘zgartirilishi mumkin. Aksiya o‘tkazish muddati o‘zgartirilgan taqdirda, Aksiya Ishtirokchilari Bank tomonidan tegishli ma‘lumotni Bank Saytiga joylashtirish orqali xabardor qilinadi.

2.4. Aksiya o‘tkazish hududi: O‘zbekiston Respublikasim Festival o‘tkazish joyi.

2.5. O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 367 va 369 moddalariga muvofiq Qoidalar ommaviy oferta hisoblanadi. Ommaviy ofertani muddatidan oldin qaytarib olish imkoniyati nazarda tutilmagan.

2.6. Qoidalarning 3.2 va/yoki 3.3 bandlarida keltirilgan har qanday harakatning jismoniy shaxs tomonidan bajarilishi ofertani to‘liq va so‘zsiz qabul qilganligini bildiradi.

- 2.7. Bank uchinchi shaxs (yoki shaxslar) – Bank Hamkorini Aksiyani tashkillashtirish va o'tkazish uchun professional tashkilotchi sifatida shartnoma asosida jalb qilishga haqli.
- 2.8. Aksiyada ishtirok etish ixtiyoriy ravishda amalga oshiriladi.
- 2.9. Qoidalar Bank Saytida joylashtiriladi.

3. Aksiyada ishtirok etish qoidalari

- 3.1. Qoidalarning 3.2 bandi va/yoki 3.3 bandida nazarda tutilgan shartlarni bajargan barcha jismoniy shaxslar Aksiya Ishtirokchisi hisoblanadi.
- 3.2. Aksiya amal qilish davrida quyida keltirilgan talablarning barchasini bajargan taqdirda jismoniy shaxs 1 yutuqli o'yinda ishtirok etadi:
- 3.2.1. 1 yutuqli o'yin o'tkazish vaqtida Bank Instagram obunachisi bo'lish;
- 3.2.2. Bank Instagramda Aksiya qoidalari to'g'risidagi postning izohlarida 2 do'stini belgilash;
- 3.2.3. Aksiya amal qilish davrida jismoniy shaxsning Instagram ijtimoiy tarmog'idagi akkaunti ochiq.
- 3.3. 2 yutuqli o'yin o'tkazish vaqtida jismoniy shaxs Bank Telegram-kanalining obunachisi bo'lsa, ushbu shaxs 2 yutuqli o'yinda ishtirok etadi.
- 3.4. Aksiyaning Sovrin fondi quyidagi Sovrinlarni o'z ichiga oladi:

Nomi	1 yutuqli o'yin	2 yutuqli o'yin	Umumiy miqdori
Xiaomi Redmi Buds 4 simsiz taqiladigan quloqchinlar	1	1	2
Yandeks Layt Sariq aqlli dinamika	1	1	2
Xiaomi Redmi Watch 4 Silver Gray aqlli soati	1	1	2
Fujifilm instax mini 12 fotoapparat	1	1	2
Xiaomi Mi Bedside Lamp 2 aqlli yotoqxon chirog'i	1	1	2
Quyidagi predmetlarni o'z ichiga oluvchi Bank brend mahsulotlari to'plami: <ul style="list-style-type: none"> • Shopper; • Futbolka-varenka; 	10	10	20

<ul style="list-style-type: none"> • Brelok; • Kepka. 			
---	--	--	--

3.5. Bank xodimlari, Bankka affillangan shaxslarning xodimlari va ularning yaqin qarindoshlari, Bankka aloqador shaxslar va ularning yaqin qarindoshlari Aksiyada ishtirok etish huquqiga ega emas. Aksiyada ishtirok etayotgan shaxs tomonidan ushbu cheklovning o'ziga qo'llanilishi aniqlansa, bunday shaxs shu xaxoti Bankka bu haqida xabar berishi va/yoki Aksiyada keyingi ishtirokni to'xtatishi shart. Ushbu cheklovga qaramasdan shaxs holatni yashirishi va uning Aksiyada ishtiroki davom etishi Qoidalarning buzilishi hisoblanadi va ushbu shaxsni keyinchalik Aksiyada ishtirok etishdan diskvalifikatsiya qilinishiga olib keladi. Ushbu cheklovni buzgan Ishtirokchi avtomatik ravishda Aksiyada ishtirok etishdan chetlatiladi. Mazkur cheklov buzilganligi ma'lum bo'lgan taqdirda Bank Sovg'ani bunday shaxsga topshirishdan bosh tortishga haqli, agar Sovg'a amalda topshirilgan bo'lsa, Bank bunday shaxsdan Sovg'ani qaytarib berishni talab etishga haqli. Ushbu bandning maqsadlarida yaqin qarindoshlik munosabatlari bilan bog'langan shaxslar kiradi, ya'ni ota-onalar, tug'ishgan va o'gay aka-ukalar va opa-singillar, turmush o'rtoqlar, farzandlar, shu jumladan asrab olingan farzandlar, bobolar, buvilar, nevaralar, turmush o'rtog'ining ota-onalari, tug'ishgan va o'gay aka-ukalari va opa-singillari.

4. G'olibni belgilash tartibi

4.1. Aksiya doirasida Sovrinlar o'yini Bank Telegram-kanalida to'g'ridan-to'g'ri efirda quyidagi shartlarga muvofiq o'tkaziladi :

Yutuqli o'yin	Yutuqli o'yinni o'tkazish sanasi va vaqti	Yutuqli o'yin ishtirokchilari	Sovrinli o'rinlar miqdori
1 yutuqli o'yin	2025 yil 10 yanvar Toshkent vaqti bilan soat 19:00	Qoidalarning 3.2 bandi shartlarini bajargan Aksiya Ishtirokchilari	10
2 yutuqli o'yin	2025 yil 10 yanvar Toshkent vaqti bilan soat 19:30	Qoidalarning 3.3 bandi shartlarini bajargan Aksiya Ishtirokchilari	10

4.2. G'oliblar tasodifiy sonlar generatoridan (randomayzer) foydalangan holda belgilab olinadi.

4.3. Har bir yutuqli o'yin doirasida 5tagacha zaxira G'oliblar belgilab olinadi.

4.4. Yutuqli o'yinlar natijalariga ko'ra asosiy va zaxira G'oliblarning ro'yxati to'g'ridan-to'g'ri efirda e'lon qilish va G'oliblarning quyidagi ma'lumotlarini chop etish yo'li bilan e'lon qilinadi:

4.4.1. 1 yutuqli o'yin uchun—Instagram ijtimoiy tarmog'idagi akkaunti nomi;

4.4.2. 2 yutuqli o'yin uchun —Telegram messenjeridagi akkaunti nomi.

- 4.5. G'olibni e'lon qilish Sovrinni olishning so'zsiz kafolati hisoblanmaydi.
- 4.6. Har bir G'olib Bankning brend mahsulotlari to'plamini olish huquqiga ega. Qoidalarining 3.4 bandida keltirilgan sovrin fondidagi qolgan Sovrinlar G'oliblar o'rtasida tasodifiy tartibda taqsimlanadi.
- 4.7. Zaxiradagi G'olib quyidagi holatlardan biri yuz berganida, qolgan zaxiradagi G'oliblar orasida uning navbatiga mos keladigan ustuvorlik tartibida Sovringa da'vogarlik qilishi mumkin:
 - 4.7.1. G'olibga xabar yuborilgan paytdan boshlab 7 ish kuni davomida Bank G'olib bilan Instagram ijtimoiy tarmog'i yoki Telegram messenjeridagi akkaunt nomi bo'yicha bog'lana olmasa;
 - 4.7.2. asosiy G'olib Sovrinni olishdan bosh tortsa;
 - 4.7.3. Qoidalarda belgilangan asoslar bo'yicha Bank asosiy G'olibga Sovrinni berishni rad etsa.

5. **Sovrinni topshirish tartibi**

- 5.1. Aksiya Ishtirokchisi G'olib deb e'lon qilingandan keyin 10 ish kuni davomida Bank G'olib bilan Instagram ijtimoiy tarmog'ida yoki Telegram messenjeridagi G'olibning akkauntiga xabar yuborish yo'li bilan Sovrinni olishning afzal sanasi, vaqti va manzilini aniqlashtirish uchun bog'lanadi.
- 5.2. Sovrinlarni topshirish Qoidalarga 1-sonli llovada ko'rsatilgan manzillarda joylashgan Bankning o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish shaxobchalarida berish yo'li bilan amalga oshiriladi.
- 5.3. G'olib Bankning o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish shaxobchalariga Sovrinni olish, shuningdek Sovrinni olish uchun hujjatlarning to'liq paketini taqdim etish uchun murojaat qilish muddati – G'olib bilan aloqa o'rnatilgan sanadan 30 ish kunidan kechikmagan holda.
- 5.4. Sovrinni topshirishda G'olib Bank va/yoki Bank Hamkorining vakiliga quyidagilarni ko'rsatishi shart:
 - 5.4.1. shaxsni tasdiqlovchi hujjat (asli);
 - 5.4.2. jismoniy shaxsning shaxsiy identifikasion raqami (JSHSHIR);
 - 5.4.3. shuningdek Bank vakili tomonidan so'ralgan boshqa hujjatlar.
- 5.5. G'olib Sovrinni olganligini Bank vakili taqdim etgan qabul qilish-topshirish dalolatnomasini imzolash orqali tasdiqlaydi.
- 5.6. G'olibga Sovrinni topshirish jarayoni foto/videotasvir orqali qayd etiladi.
- 5.7. Aksiyada ishtiroki orqali G'olib quyidagilarga roziligini bildiradi (va Bank so'roviga ko'ra uning shaxsga doir ma'lumotlaridan shu zaxoti foydalanish va qayta ishlashga roziligini yozma ravishda qo'shimcha taqdim etishga tayyor):

- 5.7.1. Bank va/yoki Bank Hamkori tomonidan Aksiya doirasida Aksiya Ishtirokchisining manfaatlarini ro'yobga chiqarish maqsadida G'olibning shaxsga doir ma'lumotlarini, shu jumladan familiya, ism, mobil telefon raqami, shaxsni tasdiqlovchi hujjat ma'lumotlari, JSHSHIRni qayta ishlash;
 - 5.7.2. Bank va/yoki Bank Hamkori topshirig'iga asosan Bank va/yoki Bank Hamkori va/yoki uchinchi shaxslarning G'olibni foto-videotasvirga olishi;
 - 5.7.3. G'olib bilan olingan foto va videoyozuvlardan (bunday foydalanganlik uchun G'olibdan qo'shimcha ruxsat olmasdan va shuning uchun biron-bir haq to'lamasdan), shu jumladan ommaviy axborot vositalarida (televideniye, Internet tarmog'i, bosma nashrlar va boshqalar) reklama maqsadlarida foydalanish, ko'rsatilgan G'olib bilan birgalikda olingan foto va videoyozuvlardan foydalanish huquqini uchinchi shaxslarga berish huquqi bilan.
- 5.8. G'olib shaxsga doir ma'lumotlarni qayta ishlashdan va/yoki topshirishning foto/video tasvirida ishtirok etishdan va foto/video materiallardan keyinchalik reklama maqsadlarida foydalanishdan bosh tortgan taqdirda, Bank G'olibga Sovrinni topshirishdan bosh tortishga haqli.
 - 5.9. G'olib Bank va/yoki Bank hamkorini xabardor qilish orqali Sovrinni olishdan bosh tortishga haqli. Bosh tortgan taqdirda, G'olib Sovrinni olish huquqini yo'qotadi va Sovrinni yana talab qilishga haqli emas. Sovrindan bosh tortganda pul kompensatsiyasi to'lab berilmaydi.
 - 5.10. Sovrinni olish munosabati bilan kelib chiqqan barcha tegishli soliqlar va majburiy to'lovlarni davlat byudjetiga to'lash va o'tkazish Bank tomonidan o'z xarajatlari hisobidan O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi va qonunchiligida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.
 - 5.11. Bank Sovrinni, shu jumladan va bular bilan cheklanmagan holda Sovrinning visual va/yoki texnik tafsilotlarini, tasfilotlar Qoidalarda belgilanganlardan sezilarli darajada farq qilmasligi sharti bilan, o'zgartirish huquqini o'zida qoldiradi.
 - 5.12. Sovrin sifatida Bankning brend mahsulotlari to'plamini olish G'olib tomonidan brend futbolka-varenka o'lchamini tanlashni nazarda tutmaydi.
 - 5.13. G'olib Sovrinni almashtirishni va/yoki Sovrinning pul shaklini talab etishga haqli emas.
 - 5.14. G'olibga topshirilgan Sovrinning keyingi qo'llanilishi, shuningdek G'olib tomonidan har qanday sabablarga ko'ra Sovrindan foydalana olmaslik uchun Bank javobgar bo'lmaydi. Sovrinning sifati uchun uning ishlab chiqaruvchisi javobgardir.

6. Cheklovlar

- 6.1. Bank Qoidalarga bir tomonlama tartibda o'zgartirish va/yoki qo'shimchalar kiritishga haqli. Qoidalarga kiritilayotgan o'zgartirish va/yoki qo'shimchalar haqida ma'lumot Bank Saytida joylashtiriladi. Aksiya Ishtirokchilari Qoidaning yangilanishini Bank Saytida tegishli o'zgarishlarni tekshirish orqali mustaqil ravishda nazorat qilishlari shart.

- 6.2. Bank Aksiya Ishtirokchilari bilan yozma muzokaralar yoki boshqa aloqaga kirishmaslik huquqini o'zida qoldiradi, nizoli holatlar kelib chiqishi yoki G'olib bilan Sovrinni topshirish uchun aloqa o'rnatish bundan mustasno.
- 6.3. Mijoz quyidagilarni amalga oshirgan taqdirda, Bank har qanday Mijozni xabar qilmasdan va sabablarini tushuntirmasdan Aksiya Ishtirokchilari qatoridan chetlatishga haqli:
 - 6.3.1. Firibgarlik harakatlarini bajarish va/yoki
 - 6.3.2. Aksiya doirasida taqdim etiladigan qaysidir imtiyozlarni suiste'mol qilish va/yoki
 - 6.3.3. Bankka chalg'ituvchi yoki no'to'g'ri ma'lumotlarni taqdim etish va/yoki
 - 6.3.4. Bankning ishbilarmonlik nufuziga putur yetqazadigan ma'lumotni tarqatish va/yoki
 - 6.3.5. Bank xodimi bo'lsa, va/yoki Bankning affillangan shaxslarining xodimi va/yoki uning yaqin qarindoshi bo'lsa, va/yoki Qoidalarning 3.5 bandiga muvofiq Bankka aloqador shaxsi va/yoki uning yaqin qarindoshi bo'lsa.
- 6.4. Quyidagi holatlarda Bank sababini tushuntirmasdan Aksiya Ishtirokchisiga Sovrinni berishdan bosh tortishi mumkin:
 - 6.4.1. G'olib tomonidan Qoidalarning 5.4 bandida nazarda tutilgan hujjatlarni taqdim etmaslik
 - 6.4.2. G'olib tantanali topshirish foto/videotasvirida ishtirok etishdan va foto/videomateriallardan keyinchalik reklama maqsadlarida foydalanishdan bosh tortishi va/yoki
 - 6.4.3. Bank tomonidan G'olibning Qoida shartlarini suiste'mol qilish belgilarining aniqlanishi va/yoki
 - 6.4.4. agar Bank G'olibning harakatlari/harakatsizligini insofsiz va/yoki Aksiyada ishtirok etish shartlarini boshqa tarzda buzish deb hisoblasa va/yoki
 - 6.4.5. Qoidalarning 3.5 bandiga muvofiq Sovrinni topshirishdan bosh tortish uchun asoslarning mavjudligi.
- 6.5. Bank quyidagilar uchun javobgar bo'lmaydi:
 - 6.5.1. Aksiya Ishtirokchilarining aybiga ko'ra yoki Aksiya Ishtirokchisi va/yoki Bankning xohish-irodasiga bo'ysunmaydigan sabablarga ko'ra Sovrinni olish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar/hujjatlarni olmaslik/ o'z vaqtida olmaslik;
 - 6.5.2. Qoidalarda nazarda tutilgan talablarning Aksiya Ishtirokchilari tomonidan bajarilmasligi (o'z vaqtida bajarilmasligi);
 - 6.5.3. G'olib tomonidan Sovrin talab qilinmagan yoki undan voz kechilgan taqdirda olinmasligi;
 - 6.5.4. Uchinchi shaxslar aybi va/yoki yengib bo'lmaz vaziyatlar sababli G'olibga Sovrinni topshirish bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishning imkonsizligi.

- 6.6. Bank favqulodda vaziyatlar, shu jumladan, istisnosiz tabiiy ofatlar, yong'inlar, suv toshqinlari, har qanday turdagi harbiy harakatlar, blokadalar, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligidagi jiddiy o'zgarishlar, shuningdek, Bankning xohish-irodasi va nazoratiga bog'liq bo'lmagan (yoki bog'liq bo'lgan) yengib bo'lmaydigan kuchning boshqa holatlari yuzaga kelgan taqdirda, Aksiya ishtirokchilari va boshqa uchinchi shaxslar oldida javobgar bo'lmaydi.
- 6.7. Aksiya Ishtirokchisida Aksiyada ishtirok etish bilan bog'liq yuzaga keladigan zararlar, chiqimlar va har qanday xarajatlarni, shu jumladan, lekin bular bilan cheklanmagan holda: Bank Aloqa markaziga qo'ng'iroq qilish, Bank Saytiga tashrif buyurish xarajatlari Bank qoplamaydi va kompensatsiya qilmaydi.

7. Boshqa shartlar

- 7.1. Aksiya o'yin, garov va (yoki) lotoreya hisoblanmaydi, xatar elementlarini o'z ichiga olmaydi va Qoidalarga asosan o'tkaziladi.
- 7.2. Qoidalardan kelib chiqadigan bahslar va nizolar O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga asosan hal etiladi. Sudga da'vo arizasi berishdan oldin jismoniy shaxs nizolarni sudgacha hal qilish tartibiga rioya etishi – quyidagi usullardan biri orqali yozma e'tiroz yo'llashi lozim:
- 7.2.1. Bank davlat ro'yxatidan o'tgan joyi bo'yicha Bank e'tirozni olganining tasdig'i bilan;
- 7.2.2. info@avo.uz elektron pochta bo'yicha.
- 7.3. Da'vo muddati davomida e'tiroz taqdim etilishi mumkin. Bank ko'rsatilgan e'tirozni ko'rib chiqadi va javobni e'tiroz olingan kundan boshlab 30 (o'ttiz) kalendar kundan oshmagan muddatda yuboradi. E'tiroz to'liq yoki qisman rad etilganda yoki ko'rib chiqish uchun belgilangan muddatlarda Bankdan javob olmagan taqdirda jismoniy shaxs sudga da'vo berishga haqli.
- 7.4. Qoidalardan kelib chiquvchi nizolar Toshkent shahar fuqarolik ishlari bo'yicha Mirobod tumanlararo sudida ko'rib chiqiladi. Nizo bo'yicha da'vogar Bank bo'lgan taqdirda, Bank o'z xohishiga ko'ra nizoni hal qilish uchun O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi huzuridagi Hakamlik sudiga Toshkent shahridagi yakka tartibdagi hakamlik sudyasi tomonidan uning reglamentiga va O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq rus tilida murojaat qilishga haqli.
- 7.5. Qoidalarga nazarda tutilmagan barcha masalalar O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq hal etiladi.
- 7.6. Aksiya Ishtirokchisi Qoidalarni bilishi va ularga bo'ysunishi shart. Aksiya Ishtirokchisi shaxsan o'z nomidan, ixtiyoriy va mustaqil ravishda harakat qiladi, shartlarni, o'z harakatlarining oqibatlarini va Qoidalarda belgilangan tegishli qoidalarni aniq tushunadi.
- 7.7. Mijoz +998 78 888-78-78 telefoni bo'yicha Bank Aloqa markaziga yoki info@avo.uz elektron manziliga murojaat qilish orqali Aksiyada ishtirok etishdan bosh tortishga haqli.

“AVO secret bag” aksiyasini o'tkazish Qoidalariga 1-sonli Ilova

Bankning o'z-o'ziga xizmat ko'rsatuv shoxobchalari

T/r	Hudud	Shahat/Tuman	Manzil	O'z-o'ziga xizmat ko'rsatish shoxobchalari nomi	Mo'ljal	Ish vaqti, Du-Yak
1.	Andijon viovati	Andijon	Mashrab ko'chasi, 62	Navruz Mall		10:00-22:00
2.	Andijon viloyati	Andijon	Cho'lpon shoh ko'chasi, 10	O'zbekim		10:00-22:00
3.	Andijon viloyati	Asaka	Asaka tumani, Birdamlik MFY, Jaloliddin Manguberdi ko'chasi, 48 uy	Globus savdo markazi		09:00-20:00
4.	Namangan viloyati	Namangan	Hamroh ko'chasi, 96-A	Grand Business	Oxunboboyev ko'chasi boshi, Muhammad Anvar ko'z klinikasi ro'parasida	09:00-20:00
5.	Namangan viloyati	Namangan	Iqbol MFY, B. Margiloniy ko'chasi, 11-B uy	Shodlik savdo markazi	Alisher Navoiy ko'chasi aylanmasi, Aloqa Bank ro'parasi	09:00-21:00
6.	Farg'ona viloyati	Marg'ilon	Burhonuddin Marg'inoniy ko'chasi, 111	Ansor Marg'ilon savdo markazi		09:00-21:00

7.	Farg'ona viloyati	Farg'ona	Marifat MFY, Mustaqillik shox ko'chasi, 50	Farg'ona markaziy univernagi		10:00-22:00
8.	Qoraqalpog'iston Respublikasi	Nukus	Ernazar Alako'z shox ko'chasi, 162	Korzinka Nukus	Markaziy bozor	09:00-21:00
9.	Qoraqalpog'iston Respublikasi	Nukus	Ernazar Alako'z shox ko'chasi, 60	Mega Nukus	Bes qala dorixonasi	09:00-22:00
10.	Xorazm viloyati	Urganch	Yangi Shovot Yo'li ko'chasi, 3	Darital	UrDU	09:00-21:00
11.	Sirdaryo viloyati	Guliston	Yangi Bozor ko'chasi, 4	Humo savdo markazi		10:00-20:00
12.	Toshkent	Mirzo-ulug'bek	Mirzo-ulug'bek tumani, T. Malik ko'chasi, 3a-sonli uy	Ekobozor	Chimgan va Atlas savdo markazi	10:00-22:00
13.	Toshkent	Yunusobod tumani	Yunusobod tumani, 19 mavze, Yunusota ko'chasi, 119 uy	SamPI savdo markazi	Qishloq xo'jaligi instituti, SamPI	10:200-22:00
14.	Toshkent	Yunusobod tumani	Yunusobod tumani, 19-kvartal, Yunusota ko'chasi, 119 uy	Atlas Yunusobod savdo markazi		10:00-22:00
15.	Toshkent	Mirzo-ulug'bek	MFY Chimyon, QoraSuv-1, 24 uy	Qorasuv Plaza savdo markazi		10:00-20:00
16.	Toshkent	Mirzo-ulug'bek	Buyuk Ipak Yo'li MFY, Sayram ko'chasi, 1-a uy	Bo'z bozor		10:00-22:00

17.	Toshkent	Mirobod tumani	TKAD 17	Compass savdo markazi	Compass savdo markazi, Qo'yliq bozori	10:00-22:00
18.	Toshkent	Chilonzor tumani	Bunyodkor 52	Magnum Chilonzor		10:00-22:00
19.	Toshkent	Shayxontoxur tumani	Toshkent, Qoratosh ko'chasi, 5A	Samarqand Darvoza savdo markazi	Samarqand Darvoza savdo markazi, Qoratosh	10:00-22:00
20.	Toshkent	Shayxontoxur tumani	Labzak ko'chasi, 12/3	Anhor Park savdo markazi		10:00-22:00
21.	Toshkent	Sirg'ali tumani	Sirg'ali tumani, Tursunzoda ko'chasi, 14 uy	Golden Life savdo markazi	3 Metro stansiyasi	10:00-22:00
22.	Toshkent	Yakkasaroy tumani	Yakkasaroy tumani, Shota Rustaveli ko'chasi, 150	Vega Centre savdo ko'ngilochar markazi	Janubiy vokzal	10:00-22:00
23.	Toshkent	Chilonzor tumani	Bunyodkor shoh ko'chasi, 7.	Toshkent Avtovokzali		10:00-19:00
24.	Buxoro viloyati	Buxoro	Navoi ko'chasi, 5 uy	Kitoblar Olami savdo markazi		09:00-21:00
25.	Jizzax viloyati	Jizzax	Sharof Rashidov 97-98	Dream House	Asakabank	09:00-21:00

26.	Jizzax viloyati	Jizzax	Mustaqillik ko'chasi, 29 googledan koordinatlar 40.155603, 67.824532 https://maps.app.goo.gl/zWcmXdbmAZeTzY6c7	Orom bazor	Orom bazor	09:00-21:00
27.	Jizzax viloyati	Jizzax	Toshloy MFY, Sh. Rashidov ko'chasi, 15	Yuksalish savdo markazi	Yuksalish savdo markazi (Korzinka)	09:00-21:00
28.	Jizzax viloyati	Jizzax	Sayiljoyi mahallasi, Sh. Rashidov ko'chasi, 89 uy	MediaPark savdo markazi	MediaPark savdo markazi	09:00-21:00
29.	Navoiy viloyati	Navoiy	G'alaba ko'chasi, 149A	Yangi hayot savdo ko'ngilochar markazi		09:00-21:00
30.	Navoiy viloyati	Navoiy	Navoiy sh., Memor MFY, 17- kvartal, G'alaba ko'chasi, 457 uy	Techno Planet savdo markazi		09:00-19:00
31.	Samarqand viloyati	Samarqand	Buyuk Ipak Yo'li ko'chasi, 131B	Atlas Samarqand	Korzinka	09:00-21:00
32.	Samarqand viloyati	Samarqand	Mir Said Baraka MFY, Mir Said Baraka ko'chasi, 2 uy	M_Baraka Samarqand savdo markazi	Viloyat shifoxonasi	09:00-21:00
33.	Qashqadaryo viloyati	Qarshi	Islom Karimov ko'chasi, 17	Atlas Qarshi		10:00-21:00



34.	Qashqadaryo viloyati	Qarshi	Alisher Navoiy shox ko'chasi, 27	Qarshi mall savdo markazi		10:00-22:00
35.	Surxandaryo viloyati	Termiz	Zaynab Sadriyeva ko'chasi, 5	Indenim Termiz		09:00-21:00